



Qo'qon DPI

**ILMIY
XABARLAR**

ISSN: 3030-3958

№ 2/2025

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

PAREMIOLOGIK BIRLIKLAR TARJIMASIDA USULLAR VA MUAMMOLAR

Kendjayeva Gulrux Fattilloevna,

Buxoro davlat universiteti

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

e-mail: g.f.kendjaeva@buxdu.uz

Zikriyoyeva Laylo Alisherovna

Buxoro davlat universiteti

Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik

kafedra 1 kurs magistranti

e-mail: zikriyayevalaylo@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada «Yov qochsa botir ko‘payar» maqolasi orqali tarjima amaliyoti va uning nazariy tahlili o‘rganiladi. Maqolaning turli tarjimalaridagi usullar, xususan, kalkalash va alliteratsiya kabi stilistik vositalar tahlil qilinadi. Maqola o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi tarjimalarda yuzaga kelgan muammolarni yoritib, adabiy tarjima nazariyasidagi ahamiyatli jihatlarni ko‘rsatib beradi. Tarjima jarayonidagi stilistik farqlar va madaniy kontekstga oid yondashuvlar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar. Paremiologiya, tarjima, kalkalash, alliteratsiya, majoziy ma‘no, adabiy tarjima, stilistika, madaniy kontekst, tarjima usullari.

МЕТОДЫ И ПРОБЛЕМЫ В ПЕРЕВОДЕ ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы переводческой практики и её теоретического анализа на примере узбекской пословицы «Ёв кочса ботир купаяр». Анализируются методы, используемые в различных переводах, в частности, калькирование и аллитерация как стилистические приёмы. Статья освещает проблемы, возникающие при переводе с узбекского на русский и английский языки, и подчёркивает важные аспекты теории литературного перевода. Особое внимание уделяется стилистическим различиям и культурному контексту в процессе перевода.

Ключевые слова: паремиология, перевод, калькирование, аллитерация, метафорическое значение, литературный перевод, стилстика, культурный контекст, методы перевода.

TRANSLATION METHODS AND CHALLENGES OF PAREMIOLOGICAL UNITS

Abstract. This article explores translation practices and their theoretical analysis through the Uzbek proverb *"Yov qochsa botir ko‘payar"*. It analyzes the methods used in various translations, particularly calquing and alliteration as stylistic devices. The article highlights the challenges faced in translations between Uzbek, Russian, and English while emphasizing key aspects of literary translation theory. Stylistic differences and approaches related to cultural contexts in the translation process are also examined.

Keywords: paremiology, translation, calquing, alliteration, figurative meaning, literary translation, stylistics, cultural context, translation methods.

Tarjima san’ati – bu faqat so‘zlarni bir tildan boshqa tilga o‘girish emas, balki bir xalqning ruhini, uning dunyoqarashini va madaniyatini yangi tilga o‘girish jarayonidir. Adabiy tarjima, ayniqsa, maqollar va paremiologik birliklar kabi o‘ziga xos va madaniy o‘zgarishlarga boy ifodalarning tarjimasi, bu jarayonning eng nozik va murakkab bosqichlaridan biridir. Paremiyalar — ya’ni maqollar, o‘zining qisqalikda chuqur ma’no va hikmatni saqlaganligi sababli tarjimonlar uchun murakkab vazifa yaratadi. Tarjima jarayonida paremiya ko‘pincha bevosita tarjima qilinishi yoki lokal kontekstga moslashtirilishi kerak. Har bir tilning o‘ziga xosliklari va madaniyatdagi farqlar bu jarayonni yanada murakkablashtiradi.

Tarjima nazariyasi o‘zining keng doirasida, faqat so‘zlarni yoki gaplarni boshqa tilga ko‘chirishni emas, balki madaniyati, uslubiyati va tarixiy kontekstini ham hisobga olishni nazarda tutadi. Bu jarayonda, o‘zbek tilidagi maqollar va paremiologik birliklar o‘zining qat’iy ma’no va tuzilishiga ega bo‘lishi bilan birga, ingliz va rus tillarida aks ettirishda nozik o‘zgarishlarga uchraydi. Maqollar, o‘zlarining qisqa va lo‘nda shakli bilan jiddiy ma’nolarni o‘z ichiga oladi, bu esa ularning tarjimasi uchun maxsus yondashuvlarni talab qiladi. Ma’lumki, har bir tilning o‘ziga xos leksik va sintaktik tizimi mavjud bo‘lib, har bir madaniyatning o‘ziga xos iboralari mavjuddir. Shu bois, «Yov qochsa botir ko‘payar» kabi maqolalar, aslida bir xalqning ongini, ma’naviyatini va qadriyatlarini aks ettiradi. Tarjimada esa bu o‘ziga xosliklarni saqlash, ayniqsa, majoziy ma’no va stilistik tasvirlarni yangicha muhitga joylashtirishni talab etadi.

Tarjima usullari, ayniqsa, kalkalash va ekvivalentlik kabi yondashuvlar, bu maqsadga erishishda muhim vositalar sifatida qaraladi. Kalkalash, so‘zma-so‘z tarjima qilish usuli bo‘lib, asarning asli ma’nosini va tuzilishini saqlab qoladi. Biroq, har doim ham kalkalash usuli maqolaning madaniy va stilistik jozibasini saqlab qolish imkonini bermaydi, chunki ba’zan tilning o‘ziga xosligini ifodalash uchun qo‘shimcha stilistik vositalardan foydalanish zarur bo‘ladi. Shuning uchun, tarjima nazariyasida, kontekstual va madaniy moslashtirish usullari ham alohida e’tiborga olinishi kerak.

Tahlil

Asliyatda: «Yov qochsa botir ko‘payar», qabilidan shu choqg‘acha lom demay o‘lturgan shahr a‘yonlari ham masalani onglab, so‘zga aralasha ketdilar¹⁹¹.

Tarjimada (M.Safarov): Именитые граждане, доселе не обмолвившиеся и словом, теперь поняв какой оборот принимает дело, заговорили все сразу. Недаром ведь говорится: «Когда враг бежит, появляется много храбрецов»¹⁹².

Tarjimada (K.Ermakova): Hitherto unable to utter a word, the noblemen now understood the turn that events were taking; they all spoke at once. And so the saying is true: ‘When the enemy is on the run, many brave men appear’¹⁹³.

Tarjimada (M.Riz): As with all situations where “When cowards flee, the brave bear the brunt of battle”, the city authorities understood the underlying issue and started to discuss them among themselves¹⁹⁴.

Ushbu misolda ajratilgan paremiologik birlik muallif tomonidan romanning birinchi qismi, 19-bobida, "Hukmnoma"da, Otabek va Mirzakarim qutidor hibsga olinganidan keyingi so‘nggi sahnalardan birini tasvirlash uchun ishlatilgan. Ushbu bobda "qora" Homidning Otabek va uning qaynotasi tomonidan Marg‘ilonda hukmdorga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarmoqchi bo‘lganlikda yolg‘on ayblanishi epizodi yakunlanadi.

Tanish-bilishlari orasida Homid yomon fe‘l-atvori, ochko‘zligi, tamagirliigi va ayyorligi bilan mashhur edi. U uzoq vaqtdan beri Kumushni sevib kelar va uni o‘zining navbatdagi xotini qilishni orzu qilardi. Biroq Otabek va Kumushning to‘yi Homidning barcha umid va orzularini puchga chiqaradi. Sevishganlarni ajratish maqsadida "qora" Homid yolg‘onga qo‘l urib, Otabek va qutidorni qo‘zg‘olon ko‘tarmoqchi bo‘lganlikda ayblaydi.

U soxta tuhmat bilan qo‘rboshiga (harbiy boshliq unvoni) borib, pora taklif qiladi va aybdorlarni qatl etishga da‘vat qiladi. Qo‘rboshining roziligini olgach, Homid Qo‘qon xonligidagi qo‘shin boshlig‘i — qushbegiga murojaat qiladi va u Otabek hamda qutidorni qatl etish haqida buyruq beradi. Biroq shu payt kutilmaganda bir ayol paydo bo‘lib, Otabekning Toshkentga kelish maqsadi va uning hukumatga qarshi fitnalarga aloqasi yo‘qligi aniq yozilgan maktubni taqdim etadi. Bu ayol Kumush bo‘lib, u o‘z eri va otasini o‘limdan qutqarishga muvaffaq bo‘ladi. Hozirda muallif "Yov qochsa, botir ko‘payar" maqolini ishlatib, ushbu kontekstda "ayblov"ni "yov"ga qiyoslamoqda. Ya‘ni, Otabek va Qutidor ayblanayotgan paytda ularning asl qiyofasini taxmin qilib pichirlashgan ko‘plab a‘yonlar va erkaklar, maktubni o‘qib chiqqach, ayblanuvchilarning begunohligini baland ovozda ta‘kidlay boshlaydilar. Go‘yo ular "chekingan dushmanni ko‘rib, qahramonlik da‘vo qilayotgan botirlar"dek edi.

Maqolning tarjima nazariyasi nuqtayi nazaridan tahlili shuni ko‘rsatadiki, barcha tarjima variantlarida kalkalash usuli, ya‘ni so‘zma-so‘z tarjima usuli qo‘llangan. Kalkalashdan foydalanishning birinchi sababi – ushbu paremiyaning o‘zbek tilidagi o‘ziga xosligi va tarjima

¹⁹¹ Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopedias, 2018. – B. 104.

¹⁹² Кадыри А. Минувшие дни. Перевод М.Сафарова. – Ташкент: Шарк, 2009. – С. 111.

¹⁹³ Qadiri A. Days Gone By. Translated by Carol Ermakova. – Paris: Nouveau Monde, 2018. – P. 98.

¹⁹⁴ Qodiriy A. Bygone Days. Translated by Mark Reese. – USA: Coppel TS, 2020. – P. 178.

tillarida unga mutanosib yoki ekvivalent iboralarning yo‘qligidir. Ikkinchidan, kalkalash usuli muallifning niyatini hamda majoziy ma‘noni saqlab qolishga yordam berishidir.

Shuni ta’kidlash joizki, tarjimaning rus tilidagi va K. Ermakovaning ingliz tilidagi variantlaridan farqli o‘laroq, M. Riz tarjimasida alliteratsiya – ya’ni matnda muayyan undosh tovushlarning takrorlanishi usuli qo‘llangan. Ushbu holatda "b" undoshi "brave, bear, brunt, battle" so‘zlarida takrorlanadi, bu esa tarjima qilingan jumлага yanada jozibadorlik bag‘ishlaydi. Chunki maqollarda ritm va tovush uyg‘unligi eng keng tarqalgan xususiyatlardan biri hisoblanadi.

Ushbu paremiyaning tahlilidan xulosa qilish mumkinki, tarjima amaliyotida kalkalash usuli keng qo‘llaniladi. Shuningdek, alliteratsiyadan foydalanish maqollar tarjimasida asl ifodaviylikni qayta yaratishga yordam beradi.

Xulosa

Maqollar va paremiologik birliklarning tarjimasi, nafaqat lingvistik jihatdan, balki madaniy va stilistik nuqtai nazardan ham katta murakkablikka ega. Ushbu maqola misolida, «Yov qochsa botir ko‘payar» maqolasi orqali, tarjimadagi lingvistik usullar, xususan, kalkalash va alliteratsiya kabi stilistik vositalarning roli chuqur tahlil qilingan. Kalkalash, tarjimaning eng an’anaviy usuli sifatida, asarning asl ma‘nosini saqlab qolishga imkon bersa, alliteratsiya kabi stilistik usullar, tarjimani yanada jozibador va estetik nuqtai nazardan boyitadi. Biroq, majoziy ma‘no va madaniy kontekstni saqlashda, tarjimonning san’ati eng katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Maqolada keltirilgan tarjima variantlarining har biri, o‘ziga xos madaniy o‘zgarishlar va tilshunoslik xususiyatlarini aks ettiradi. Natijada, tarjimaning muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun, so‘zlarning ma‘nosini saqlab qolishdan tashqari, ularning majoziy, ritmik va stilistik elementlarini ham yangi tilga o‘tkazish zaruriyatini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tarjimadagi madaniy farqlar va tilshunoslik masalalari, xalqaro adabiyot va tarjima sohasida doimo yangi yondashuvlarni talab qiladigan muammolarga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Влахов С., Флорин С. Непере译имое в переводе. – М., (С. 47.) 1980.
2. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopedias, 2018. – B. 104.
3. Кадыри А. Минувшие дни. Перевод М.Сафарова. – Ташкент: Шарк, 2009. – С. 111.
4. Qadiri A. Days Gone By. Translated by Carol Ermakova. – Paris: Nouveau Monde, 2018. – P. 98.
5. Qodiriy A. Bygone Days. Translated by Mark Reese. – USA: Coppel TS, 2020. – P. 178.
6. Виноградов В.С. Введение в переводоведение (общие и лексические вопросы). – Москва: Издательство института общего среднего образования РАО, 2001. С. 117
7. Khajieva F.M. Decoding of Stylistic Devices in Russian and English Translations of the Uzbek Novel “Days Gone By” by Abdulla Qadiri (Stylistic Correspondences and Transformations). // Theoretical & Applied Science. 72. 541-545 p. 10.15863/TAS.2019.04.72.72.

8. Khajieva Feruza, & Gaybullayeva Sevara. (2023). STYLISTIC TRANSFORMATIONS IN THE ENGLISH TRANSLATIONS OF A. QODIRIY’S NOVEL “DAYS GONE BY”. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(04), 63–69. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue04-12>

9. Kendjayeva, Gulrukh Fattilloevna. "Methods of translating realias in the novel “days gone by” by Abdulla Qadiri." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 12.5 (2022): 200-204.

10. Fattilloevna, Kenjaeva Gulrukh. "Methods of Rendering Realias in the Translations of the Novel “Days Gone by” by Abdulla Qadiri." *JournalNX* 7.09 (2021): 166-171.

11. Kendjaeva, G. F. "The methods of translating phraseological units in the Russian and English translations of the novel "Days Gone by" by Abdulla Qadiri." *ISJ Theoretical & Applied Science*, 09 (89) (2020): 316-321.

Mohinur Axmadjonova	
SOHA TERMINLARINING LINGVISTIK TADQIQI <i>Musurmanova Shaxnoza Qo‘chqorovna, Azimova Husnora Sunatillo qizi</i>	1352
RUS TILI VA MADANIYATINI O‘RGATISH JARAYONIDA LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH <i>Nabiyeva Dilshoda Urakovna</i>	1357
LOTIN TILINING TIBBIYOT FANIDAGI ROLI VA UNING AHAMIYATI <i>Normuradova Nasiba</i>	1363
FRAZEOLOGIK DERIVATLARNI STRUKTURAL-SEMANTIK O‘ZIGA XOSLIGI <i>Nortoyeva Nodiraxon Muxammadaliyevna</i>	1370
PAREMIOLOGIK BIRLIKLAR TARJIMASIDA USULLAR VA MUAMMOLAR <i>Kendjayeva Gulrux Fattillovayevna, Zikriyoyeye Laylo Alisherovna</i>	1376
“ХАЗИЛ” НУТҚИЙ ЖАНРИ ВА МАДАНИЯТ ОРАСИДАГИ БОҒЛИҚЛИКЛАР <i>Зияева Камолахон Зияиддиновна</i>	1381
YOSHLAR SLENGINING O‘RGANILISHI: JAHON TAJRIBASI VA O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI MIQIYOSIDA <i>Pulatova Umriniso Umar qizi</i>	1386
TOG‘AY MUROD ASARLARIDA MAQOLLARNING LINGVOMADANIY TAHLILI <i>G.A.Tursinbayeva</i>	1392
INGLIZ TILIDAGI TIBBIY ATAMALAR VA ULARNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR BILAN BOG‘LIQLIGI <i>Hamroyeva Sanobar Hasan qizi</i>	1400
ТИЛШУНОСЛИКДА РАНГ КОДИ СИФАТИДА: ЎЗБЕК ВА ИСПАН МАҚОЛЛАРИДА УНИНГ ИДРОК ЭТИШ ХУСУСИЯТЛАРИ <i>Djalilova Sarvaroy Mexrojoyvna, Abdullayeva Parvina Tolibjonovna</i>	1405
LEKSIKOGRAFIYA TARAQQIYOTI VA HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI <i>Ashurova Sitara Erkinovna</i>	1411
РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТОВ “ЧЕЛОВЕК И ПРИРОДА” В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ДОРИС ЛЕССИНГ <i>Алижоновна Окила Алимовна</i>	1416
O‘ZBEK SHE’RIYATIDA BAHOR RAMZI <i>Safarova Hamrooy Qahramon qizi</i>	1421
O‘ZBEK TILIDA TASVIRIY VOSITALARNING XUSUSIYATLARI <i>Sulaymonova Mahfuza Shavkat qizi</i>	1428
O‘ZBEKISTONDA BLINGVISTIK MUHIT VA MADANIY MOSLASHUV <i>Ruziyeva Madina Ilhom qizi</i>	1433
SOCIOLINGUISTIC FEATURES IN ENGLISH AND UZBEK DIGITAL DISCOURSE <i>Khudayberdieva Zarrinabonu Zafar kizi</i>	1436
POETIK NUTQDA XIAZM USULI <i>Mamaziyayev Oblaberdi Xudoberganovich, Axmadjonov Avazbek</i>	1443
SENSOR AFAZIYADA TAKRORLASH KO‘NIKMASINING SAQLANGANLIK HOLATIGA OID TAJRIBA TAHLILI <i>Qambarova Lobar Athamboy qizi</i>	1449
LATIFALAR MATNIDA PAREMIK BIRLIKLARNING QO‘LLANILISHI <i>Husaynova Mahliyoixon Ma‘ruffjon qizi</i>	1456
TOHIR MALIKNING “SHAYTANAT” ASARIDA QO‘LLANGAN PARANTEZ BIRLIKLARNING IFODALANISHI	1460